

**“Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining 2021 yil yakuni bo‘yicha umumiy yig‘ilishi
bayonnomasi**

1-sonli

2022 yil 8 aprel soat 11-00

Xonqa tumani

Yig‘ilish raisi: F.Dj.Niyazov - Kuzatuv kengashi raisi

Ishtirok etganlar: “O‘zdonmahsulot” AK vakili F.Dj.Niyazov
“Xonqa don mahsulotlar” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlari hamda ular nomidan kelgan vakillar, jamiyat
kuzatuv kengashi va boshqaruvi a‘zolari (ro‘yxatga olish
qaydnomasi bo‘yicha)

Jami ovoz beruvchi aksiyalar 18323548 (o‘n sakkiz million uch yuz yigirma uch ming besh yuz qirq sakkiz) dona. Yig‘ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlar va ularning vakillariga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar soni 12783604 dona. Yig‘ilish kvorumi 69,77 foiz.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 66-moddasiga muvofiq, ovozlarni sanab chiqish, umumiy yig‘ilishda ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro‘yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a‘zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida tasdiqlanishi belgilanganligini bildirdi.

Sanoq komissiyasining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo‘lishi hamda bu tarkibga jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zolari, taftish komissiyasining a‘zolari (taftishchisi), jamiyat boshqaruv raisi, ishonchli boshqaruvchi, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko‘rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emasligi ma‘lum qilindi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi masala yuzasidan, aksiyadorlar tomonidan tasdiqlash uchun quyidagi tarkibda sanoq komissiyasi a‘zolarini taklif qildi hamda ochiq ovoz berish orqali tasdiqlab berishlarini so‘radi.

| T.R. | Familiya, ismi va sharifi | Lavozimi |
|-------------|----------------------------------|--|
| 1 | Aminov Umid Ro‘zmamatovich | “Xonqa don mahsulotlari” AJ iqtisodchi |
| 2 | Xayitov Mirzobek | “Xonqa don mahsulotlari” AJ yetakchi xisobchisi |
| 3 | Sharipov Qaxramon | “Xonqa don mahsulotlari” AJ yetakchi marketolog |

Kun tartibidagi ushbu masala ovozga qo‘yildi va taklif bir ovozdan ma‘qullandi.

Shundan so‘ng, Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov aksiyadorlarning

umumiy yig'ilishni olib borish tartibi va reglamentini tasdiqlash taklifini kiritdi. Yig'ilishda ma'ruzaga chiquvchilarga 10 daqiqa, muhokama uchun 5 daqiqa, shuningdek, yig'ilishni tanafussiz yakunlash taklif etildi va ochiq ovoz berish orqali tasdiqlab berishlarini so'radi.

Taklif etilgan tartib va reglement bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Quyidagi (oldindan aksiyadorlarga tarqatilgan) kun tartibi o'qib eshittirildi:

1. Umumiy yig'ilish ish reglamentini tasdiqlash.
2. Sanoq komissiyasi a'zolari soni va tarkibini saylash.
3. Jamiyatning 2021 yil moliya-xo'jalik faoliyati yakunlari va Biznes-rejasining bajarilishi yuzasidan boshqaruv raisining yillik hisobotini eshitish.
4. Jamiyatning ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha hamda molyaiviy-faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish masalalari bo'yicha direktorlarining hisobotini eshitish.
5. Jamiyatning 2021 yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yuzasidan taftish komissiyasining hisoboti hamda tashqi auditorlik tashkilotining hulosasi bilan tanishib, munosabat bildirish va 2022 yil natijalari bo'yicha tashqi auditorlik tashkilotini tanlash.
6. Korxonada xaridlar jarayonining shaffofligi asosligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to'g'risida va moliyaviy faoliyat tahlili hamda samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK, SYK) bajarilishi to'g'risida tashqi audit hulosalarini ko'rib chiqib, munosabat bildirish.
7. Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga muvofiq, jamiyatda 2021 yil yakuni bo'yicha mustaqil tashkilot tomonidan o'tkazilgan korporativ faoliyatini baholash hulosasini eshitish.
8. Jamiyatning 2021 yil moliyaviy ko'rsatkichlari yakuniy hisobotini, buhgalteriya balansini, foyda va zararlari hisob-varag'ini, sof foyda taqsimotini va dividend hajmini shakllantirish masalalarini ko'rib chiqib, munosabat bildirish.
9. Jamiyatning 2022 yilga mo'ljallangan biznes-rejasini tasdiqlash.
10. Jamiyat Kuzatuv kengashining 2021 yil yakuni bo'yicha hisobotini eshitish.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi 5723-sonli Farmoniga muvofiq jamiyatlar tomonidan tasdiqlangan Nizomga asosan Kuzatuv kengashi, ijro organi va taftish komissiyasi a'zolarini moddiy rag'batlantirishni kelishish.
12. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari va jamiyat taftish komissiyasi a'zolarini saylash.
13. Jamiyat boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini uzaytirish to'g'risida. Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov yuqorida keltirilgan kun tartibi bo'yicha qo'shimcha taklif yoki e'tirozlar bo'lmasa ochiq ovoz berish orqali tasdiqlab berishlarini so'radi.

Taklif etilgan kun tartibi bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Yig'ilish raisligiga F.Niyazov, kotibligiga jamiyat AKT mutaxassis A.Sharipov nomzodlari taklif etildi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi rayosatiga "Honqa don mahsulotlari" AJ Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov, a'zolari Boshqaruv raisi R.Abdullayev, Moliyaviy faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish bo'yicha direktor O.Zaripov, Ishlab chiqarish, mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha direktor O'.Razzaqov hamda bosh hisobchi R.Avezovlar nomzodlari taklif etildi.

Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov kun tartibidagi birinchi va ikkinchi masalalar aksiyadorlar tomonidan ochiq ovoz berish orqali tasdiqlab olinganligi sababli, kun tartibidagi uchinchi masalani ko'rib chiqish taklifini kiritdi.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan 2021 yilda jamiyat faoliyatiga rahbarlik qilgan R.Abdullayev so'zga chiqib, Jamiyatning 2021 yil moliya-xo'jalik faoliyati yakunlari va Biznes-rejasining bajarilishi yuzasidan batafsil ma'lumot berib o'tdi (hisobot ilova qilinadi).

Taklif etilgan kun tartibidagi uchinchi masala ham aksiyadorlar tomonidan tinglanib, bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha bo'ldi:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo'q | yo'q |

Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan, Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov "Xonqa don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha hamda moliyaviy-faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish masalalari bo'yicha direktorlarining 2021 yil yakuni bo'yicha hisobotini eshitishni taklif etdi. Yig'ilish ishtirokchilariga hisobot berildi va muhokama qilingan hisobotni ovozga qo'yish taklifini berdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi to'rtinchi masala bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo'q | yo'q |

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan, jamiyat bosh hisobchisi R.Avezov so'zga chiqib, 2021 yil davomida jamiyatda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot berdi.

Shuningdek, taftish komissiyasining hisoboti hamda 2021 yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotlar 2022 yil 31 yanvardagi 07/22-sonli shartnomaga

asosan “**KORIFEY-AUDIT**” MChJ tomonidan audit tekshiruvidan o‘tkazilgan va ijobiy hulosa berilganligi to‘g‘risida gapirdi.

2022 yil yakuni bo‘yicha maoliyaviy faoliyatni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishni belgilangan tartibda tender asosida auditorlik tashkilotini tanlashni taklif qilaman.

Yig‘ilish ishtirokchilari fikr-mulohozalaridan so‘ng, raislik etuvchi kun tartibidagi beshinchi masalani ovozga qo‘yish taklifini bildirdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi beshinchi masala bir ovozdan ma’qullandi. Qarshi va betaraflar bo‘lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo‘q | yo‘q |

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan Ishlab chiqarish, mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo‘yicha direktor O‘.Razzaqov “Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining xaridlar jarayonidagi shaffofligi asosligi, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo‘yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligi to‘g‘risida hamda moliyaviy faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish bo‘yicha direktor O.Zaripov moliyaviy faoliyat tahlili xamda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari bajarilishi to‘g‘risida tashqi audit ya’ni “**KORIFEY-AUDIT**” MChJdan berilgan hulosani yig‘ilish ishtirokchilari muhokomasiga havola etdilar.

Yig‘ilish ishtirokchilariga bayon qilingan auditorlik tashkiloti hulosalari muhokamadan so‘ng ovozga qo‘yish taklifini berdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi oltinchi masala bir ovozdan ma’qullandi. Qarshi va betaraflar bo‘lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo‘q | yo‘q |

Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan moliyaviy faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish bo‘yicha direktor O.Zaripov korporativ boshqaruv kodeksi talablariga muvofiq, jamiyatda 2021 yil yakuni bo‘yicha mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan korporativ faoliyatni baholash bo‘yicha hulosasini eshitishlarini va munosabat bildirishlari mumkinligini bildirdi.

Yig‘ilish ishtirokchilariga mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tayyorlangan hulosa o‘qib eshittirilib, muhokama qilingandan so‘ng ovozga qo‘yish taklifini berdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi yettinchi masala bir ovozdan ma’qullandi. Qarshi va betaraflar bo‘lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo‘q | yo‘q |

Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan moliyaviy faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish bo‘yicha direktor O.Zaripov so‘zga chiqib, boshqaruv tomonidan jamiyat daromadini oshirish borasida aniq, rejali chora-tadbir amalga oshirilganligi bois o‘tgan 2021 yil faoliyati natijalari qoniqarli yakunlaganligini ta’kidladi.

Shu bilan birga, jamiyatning o‘z mablag‘lari va aksiyadorlik jamiyati majburiyatlari uning aktiv manbai bo‘lib, ularning hisob raqamlarida aks ettirilishi buhgalteriya hisobi tamoyillariga mos kelishi, balansining xalqaro talablarga mos holda yuritilishi yakuniy moliyaviy natijalarning to‘g‘ri aniqlanishiga asos bo‘lishi, o‘tkazilgan tahlil va tekshiruvlar natijasida jamiyat buxgalteriya balansining oshkoraligi ta’minlanganligi hamda mazkur holatni jamiyatning 2021 yilgi moliyaviy natijalarini tekshiruvdan o‘tkazgan “**KORIFEY-AUDIT**” MChJ audit tashkiloti hulosalarida ham yoritilganligi ma’lum qilindi.

Shunga muvofiq, “Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati 2021 yil moliyaviy xo‘jalik faoliyatini **2 mlrd. 666 mln. 420 ming 715 so‘m** moliyaviy natija bilan yakunlagan.

Jamiyat faoliyatining 2021 yildagi yakuniy buhgalterlik balansi, foyda va zararlarini to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash hamda 2 mlrd. 666 mln. 420 ming 715 so‘m sof foydasini:

- 5 foizini (133 mln. 321 ming 35 so‘m) “Xonqa don mahsulotlari” AJ ning zaxira fondiga,

- 65 foizi (1 mlrd. 733 mln. 237 ming 498 so‘m) ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga,

- 30 foizi (799 mln. 862 ming 181 so‘m)ni «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 51-moddasiga asosan aksiyadorlarga dividend to‘lashga yo‘naltirishga.

Har bir imtiyozli aksiyalarning bir donasi uchun 43 so‘m 28 tiyindan jami 6 mln. 819 ming 23 so‘m hamda har bir oddiy aksiyalar uchun xam 43 so‘m 28 tiyindan jami 793 mln 43 ming 157 so‘m dividend to‘lovlari to‘g‘ri kelayotganligi va bu qonunda belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini bildirdi.

Yig‘ilish ishtirokchilari muhokamasi eshitilgandan so‘ng, raislik etuvchi kun tartibidagi ushbu sakkizinchi masalani ovozga qo‘yish taklifini berdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi sakkizinchi masala bir ovozdan ma’qullandi. Qarshi va betaraflar bo‘lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo‘q | yo‘q |

Kun tartibidagi to‘qqizinchi masala yuzasidan jamiyat boshqaruv raisi

R.Abdullayev soʻz olib, jamiyatning 2022 yilga moʻljallangan biznes rejasida un, omuxta–em, urugʻlik bugʻdoy hamda qishloq xoʻjaligi maxsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilganligi, 2022 yil davomida – 267 nafar ishchi xizmatchi ishlashi moʻljallangan boʻlib: boshqaruv xodimlari – 13 nafar, mutaxassislar va tenik xodimlar – 56 nafar, muxandis va ishchi xizmatchilar – 198 nafarni tashkil qilishini, 1 ishchi – xizmatchining oʻrtacha oylik maoshi – 2 750 000 soʻmni tashkil qilishi moʻljallangan.

2022 yil davomida maxsulot ishlab chiqarish xajmi – 111 milliard 361 million soʻmlik, shundan un – 37 600 tonnani, omuxta – yem – 17 000 tonnani, urugʻlik bugʻdoy tayyorlash – 1900 tonnani tashkil qilishi rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari 2022 yildagi biznes rejada bajariladigan ishlar toʻgʻrisida batafsil maʼlumot berib, gapirib oʻtdi.

Yigʻilish ishtirokchilari muhokamasi eshitilgandan soʻng, raislik etuvchi kun tartibidagi ushbu toʻqqizinchi masalani ovozga qoʻyish taklifini berdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi toʻqqizinchi masala bir ovozdan maʼqullandi. Qarshi va betaraflar boʻlmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yoʻq | yoʻq |

Kun tartibidagi oʻninchi masala yuzasidan “Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov soʻzga chiqib, 2021 yil davomida besh marotaba Kuzatuv kengashi aʼzolari yigʻilishi oʻtkazilganligi, shuningdek, ushbu yigʻilishlarda jamiyat faoliyati bilan bogʻliq hamda jamiyatni yanada rivojlantirish borasida ustuvor vazifalar belgilab olinganligini gapirib oʻtdi (Kuzatuv kengashi hisoboti yozma ravishda ilova etiladi).

Taklif etilgan kun tartibidagi oʻninchi masala bir ovozdan maʼqullandi. Qarshi va betaraflar boʻlmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha boʻldi:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yoʻq | yoʻq |

Kun tartibidagi oʻn birinchi masala yuzasidan jamiyat jamiyati Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov soʻzga chiqib aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini baholashdan oʻtkazish va bu ishni amalga oshirish uchun mustaqil tashkilot jalb etilishi kerakligini bildirdi.

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholashni quyidagi tashkilotlar oʻtkazishi mumkin:

- fond birjasi;
- qimmatli qogʻozlar bozorining professional ishtirokchilari;
- shtatida tegishli korporativ boshqaruvchi yoki qimmatli qogʻozlar bozori

mutaxassisi attestati bo'lgan auditorlik tashkilotlari;

-akkreditatsiyadan o'tgan reyting agentliklari;

-korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi;

-xususiylashtirish, raqobatni va korporativ boshqaruvni rivojlantirish muammolari tadqiqotlari markazi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining qarori bo'yicha tanlov asosida o'tkaziladi.

Aksiyadorlik jamiyatida o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari aksiyadorlik jamiyati saytida ushbu baholashni o'tkazgan tashkilot xulosasi bilan birgalikda e'lon qilinadi.

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash yiliga kamida bir marta o'tkazilib, uning natijalari bilan jamiyat boshqaruv organida ular nomidan ishtirok etayotgan shaxslarni mukofotlash miqdorini aniqlash ham nazarda tutiladi.

Yuqoridagi talablarga rioya qilingan holda korporativ boshqaruv tizimini baholashni jamiyatga mulkiy munosabat orqali bog'liq bo'lmagan mustaqil tashkilot bilan tegishli shartnoma asosida amalga oshirildi.

"Xonqa don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati 2021 yil yakuni bo'yicha faoliyati boshqarilishi auditorlik tekshiruvidan o'tkazgan "**KORIFEY-AUDIT**" MChJ hulosasiga asosan yuqori darajada deb topilgan.

"Xonqa don mahsulotlari" AJning 2020 yil 27 martdagi umumiy yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan, Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a'zolarini moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi NIZOMga asosan belgilangan tartibda va boshqaruv raisi R.M.Abdullayev, moliyaviy faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish bo'yicha direktor O.R.Zaripov, ishlab chiqarish, mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha direktor O.M.Razzaqov, bosh hisobchi R.K.Avezovlarga har biriga oylik maoshining 6 (olti) barobari, bosh iqtisodchi U.R.Aminov va yetaki marketolog Q.S.Sharipovlarga har biriga oylik maoshining 3 (uch) barobari miqdorida rag'batlantirishni taklif qilaman.

Muhokamadan so'ng, yig'ilish raisi kun tartibidagi o'n birinchi masalani ovozga qo'ydi:

Taklif etilgan kun tartibidagi o'n birinchi masala bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | Betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo'q | yo'q |

Kun tartibidagi o'n ikkinchi masala yuzasidan F.Niyazov, umumiy yig'ilish muhokamasiga O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasiga muvofiq, jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin o'ttiz kundan kechiktirmay, agar jamiyat ustavida bundan kechroq muddat belgilanmagan bo'lsa, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyat Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi (taftishchiligi)ga bu organning tarkibidan oshmaydigan miqdorda

nomzodlar ko'rsatishga haqliligini bildirdi.

Qonunda belgilangan muddatda kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzodlar taklifi berilgan bo'lib, ushbu nomzodlar quyidagi tartibda ovozga qo'yildi:

| t/r | Familiya, ismi va sharifi | Lavozimi | tarafdorlar | qarshilar | betaraf- lar |
|------------|--------------------------------------|--|--------------------|------------------|-------------------------|
| 1 | Niyazov Feruz Djabbarovich | “O‘zdonmahsulot” AK Don resurslari va ularni tashish tashkil etish boshkarmasi boshlig‘i | 12900940 | yo‘q | yo‘q |
| 2 | Qarshiboyev G‘ofurjon Yaxshiboyevich | “O‘zdonmahsulot” AK Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshkarmasi boshlig‘i | 12764048 | yo‘q | yo‘q |
| 3 | Kamilov Abror Anvarovich | “O‘zdonmahsulot” AK Ishlar boshqarmasi rahbar kotibi | 12764048 | yo‘q | yo‘q |
| 4 | Abdullayev Rasul Abdulazizovich | “O‘zdonmahsulot” AK investitsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi | 12764048 | yo‘q | yo‘q |
| 5 | Donayev Sherali Burxanovich | “O‘zdonmahsulot” AK Don resurslarini qayta ishlash, maxaliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish boshqarmasi boshlig‘i | 12764048 | yo‘q | yo‘q |
| 6 | Raximov Xojakbar Abduhakim o‘g‘li | “O‘zdonmahsulot” AK Don resurslarini qayta ishlash, maxaliylashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi | 12764048 | yo‘q | yo‘q |
| 7 | Kilichev Turonshox | “O‘zdonmahsulot” AK Moliya va buxgalteriya | 12764048 | yo‘q | yo‘q |

| | | | | | |
|--|----------------|-------------------------------|--|--|--|
| | Dilshod o'g'li | xisobi boshqarmasi kassiri | | | |
|--|----------------|-------------------------------|--|--|--|

Kun tartibidagi masala yuzasidan, qonunda belgilangan muddatda taftish komissiyasi a'zolariga nomzodlar taklifi berilgan bo'lib, ushbu nomzod quyidagi tartibda ovozga qo'yildi:

| t/r | Familiya, ismi va sharifi | Lavozimi | tarafdorlar | qarshilar | betaraflar |
|-----|------------------------------|---|-------------|-----------|------------|
| 1 | Jabbarov Ruslan Jumaboyevich | “O'zdonmahsulot” AK Don resurslari va ularni tashish tashkil etish boshkarmasi yetakchi mutaxassisi | 12783604 | yo'q | yo'q |

Taklif etilgan kun tartibidagi o'n ikkinchi masala bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi o'n uchunchi masala yuzasidan, Kuzatuv kengashi raisi F.Niyazov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, aksiyadorlik jamiyati ijro organining rahbarini tayinlash to'g'risidagi qarorda xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinishi belgilanganligini aytib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlarining Boshqaruv raisi o'z lavozimiga bir yil muddatga yollanishi va u bilan shu muddatga mehnat shartnomasi imzolashini mumkinligi to'g'risida to'xtalib, Abdullayev Ravshonbek Masharipovich nomzodini “Xonka don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatiga rahbarlik qilishi yuzasidan taklif kiritdi. Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini bir yilga ya'ni, aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishiga qadar tuzish taklifini berdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish ishtirokchilari fikr, munosabat bildirishlarini so'radi va muhokamalardan so'ng ovozga qo'yish taklifini berdi:

Taklif etilgan kun tartibidagi o'n uchunchi masala bir ovozdan ma'qullandi. Qarshi va betaraflar bo'lmadi.

Ovoz berish natijalari quyidagicha:

| t/r | Tarafdorlar | Qarshilar | betaraflar |
|-----|---------------------|-----------|------------|
| 1 | 12783604 (100 foiz) | yo'q | yo'q |

UMUMIY YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. “Xonqa don maxsulotlari” AJning bugungi umumiy yigilishini olib borish tartibi va reglamenti tasdiqlasin.

2. Aksiyadorlar tomonidan ko‘rib chiqilib tavsiya etilgan “Xonqa don maxsulotlari” AJning bugungi umumiy yigilish sanoq komissiyasi soni va tarkibi tasdiqlansin.

3. Jamiyatning 2021 yilgi moliya-xo‘jalik faoliyati yakuni va «Biznes-reja»ning bajarilishi bo‘yicha ijro organi xisoboti qonikarli deb xisoblansin va tasdiqlansin.

4. 2021 yil yakuni bo‘yicha boshqaruv raisining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, sanoatda koorperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo‘yicha hamda moliyaviy faoliyat, mahsulot sotish va sotib olish bo‘yicha direktorlarining hisobotlari ma‘qullansin.

5. Jamiyatning 2021 yil moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yuzasidan taftish komissiyasining va auditorlik tashkilotining hulosalari ma‘lumot uchun qabul qilinsin va 2022 yil auditorlik tekshiruvini amalga oshirish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tender asosida tanlash ma‘qullansin.

6. Korxonada xaridlar jarayonining shaffofligi, asosiligi, shu jumladan mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo‘yicha belgilangan parametrlarga muvofiqligini hisobga olgan holda import xaridlarini, shuningdek valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi va faoliyat tahlili xamda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari bajarilishi to‘g‘risida tashqi audit xulosasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

7. Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga muvofiq, jamiyatda 2021 yil yakuni bo‘yicha mustaqil tashkilot tomonidan o‘tkazilgan korporativ faoliyatni baholash hulosasi ma‘lumot uchun qabul kilinsin.

8. Jamiyatning 2021 yil uchun yillik balansi va daromad xisoboti tasdiqlansin. 2021 yil yakuni bo‘yicha korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda, ya‘ni 2 mlrd 666 mln 420 ming 715 so‘mning:

- 5 foizini (133 mln. 321 ming 35 so‘m) “Xonqa don maxsulotlari” AJ ning zaxira fondiga;

- 65 foizi (1 mlrd. 733 mln. 237 ming 498 so‘m) ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga;

- 30 foizi (799 mln 862 ming 181 so‘m)ni «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 51-moddasiga asosan aksiyadorlarga dividend to‘lashga yo‘naltirilsin.

Dividendlar nominal qiymati 100 so‘m bo‘lgan imtiyozli va oddiy aksiyalar uchun xar bir dona aksiyaga 43 so‘m 28 tiyindan to‘lansin.

Aksiyalarga hisoblangan dividendlarni 2021 yil 18 apreldan boshlab korxonadan hisob raqamga pul o‘tkazish va plastik kartochka orqali to‘lab, 60 kun ichida hisoblashilsin.

10. Jamiyatning 2022 yilga mo‘ljallangan biznes-rejasi tayyorlanishini va ijrosi yuzasidan hisobatlarni choraklik-yillik tartibda berib borilishiga qat‘iy amal qilinsin va tasdiqlansin.

11. Jamiyat Kuzatuv kengashining 2021 yil yakuni bo‘yicha hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

12. Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a'zolarini moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi NIZOMga asosan, boshqaruv a'zolari belgilangan tartibda rag'batlantirilsin.

13. Sanoq komissiyasining bayoniga asosan kummulyativ ovoz berish yakuni bo'yicha Kuzatuv kengashi tarkibiga quyidagilar saylangan xisoblansin.

Niyazov Feruz Djabbarovich

Qarshiboyev G'ofurjon Yaxshiboyevich

Kamilov Abror Anvarovich

Abdullayev Rasul Abdulazizovich

Donayev Sherali Burxanovich

Raximov Xojjakbar Abduhakim o'g'li

Qilichev Turonshox Dilshod o'g'li

14. Taftish komissiyasi tarkibiga Jabbarov Ruslan Jumaboyevich saylangan hisoblansin.

15. Abdullayev Ravshonbek Masharibovich bilan Kuzatuv kengashi o'rtasida aksiyadorlarning 2022 yil yakuni bo'yicha o'tkaziladigan navbatdagi umumiy yig'ilishiga qadar "Xonqa don maxsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv raisligiga mexnat shartnomasi tuzilsin.

16. Ushbu qarorning bajarilishini ta'minlash jamiyat boshqaruvi raisi R.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

17. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat kilish Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish raisi

F.Niyazov

Yig'ilish kotibi

O.Sharipov

Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana 14 aprel 2022 yil .